

This is not registered version of Total Doc Converter.
Har bir kitobninga shartshonmayman! Bekorchi gaplar.

Masalan, deylik, ko'cha bo'ylab ruhoniylar ketib boryapti. Ha, ketayotgan bo'lsa yaxshi. Uni o'z holiga qo'ying. Balki u xalq sudiga ketayotgandir yoki tergovchi chaqirgandir uni. Men qayoqdan bilay? Shundan ham qandaydir xulosalar chiqarish kerak emas-ku, emishki, ruhoniylar uchratib qolsang, bu yaxshilikka olib kelmasmish. Bekorchi gaplar. Safsata.

Yoki deylik, yo'lingizni qora mushuk kesib o'tdi... Ayrimlar mushukka ko'zi tushishi bilan shu zahotiy oq ortiga qaytadi. Aniqrog'i, qo'rqib ketadi. Yumushiga bormaydi. Yo'li berk bo'larmish.

Yana safsatobozlik. Yana bekorchi gaplar. Ha, mushuk yugursa yuguribdi-da shunga shunchami? Uni oyog'ing bilan turtib yubor yoki yo'ning u tarafiga o'tib, hech narsa ko'rmaganday yumushingga ketaver. Yo'q, orqaga yo'rtib qolishadi.

Men, o'rtoqlar, ochiq aytaman: bu bekorchi irim-sirimlarga hecham ishonmayman... Bir kuni shunday bo'lgandi. Ivan Ivanovich Kryukov, uni tanirsiz balki, tavallud kunini nishonlash uchun bizni uyiga taklif etdi. Xotini tavallud kuniga katta o'rama kulcha pishiribdi, deng. Ustiga shakar unidan ham sepibdi. Va uni laganda keltirib, stol ustiga qo'ydi.

Mezbon esa, e'tibor bering-a, qo'lini bir-biriga ishqalaydi.

Mana, deydi, e'tiboringizni mana bu o'rama kulchaga qarating. Bu o'rama kulcha oddiy kulcha emas. O'rama kulchani ichida mehmonlar uchun sovg'a bor.

Ol-a? dedik biz.

Ha-da, sovg'asi bor ichida. O'n tiyinlik kumush tanga solib pishirilgan. Tanga kimga tegsa, o'sha dunyoda eng baxtli inson bo'ladi. Baxtimizni sinab ko'raylik... deydi. Irimi shunaqa.

Mezbon o'rama kulchani kesib, mehmonlarga ulashdi. Yeya boshladik...

Oramizda esa Petrovich ismli tul kishi bor edi. O'ta uyatchang va baxtsiz odam edi u. Hayotda omadi chopmasdi: baytalinig ham oyog'i sindi, xotini ham, bilsangiz agar, yaqinda olamdan o'tdi va umuman olganda omadsiz kishi edi u.

Xuddi mana shu Petrovich tanga haqida eshtishi bilan o'zini qo'yarga joy topa olmay qoldi.

Eh, deydi, qani edi tanga menga nasib etsa. Bir omadim kelarmidi.

Va o'rama kulchani ustiga engashib olganicha kulchani paqqos tushira ketdi, mezbon esa uni kesishga bazo'r ulguradi, deng.

U o'n bir bo'lakni paqqos tushirdi, o'n ikkinchisiga kelganda taqqa to'xtadi!

E-voh, deydi, tangani topdim, shekilli. Tilim ostida...

Petrovich barmog'ini og'ziga solib, tangani chiqarib olmoqchi bo'ldi, lekin shodligini ichiga sig'dira olmay entikib nafas olgan edi, tomog'iga bir narsa tiqildi. Va tangani yutib yubordi.

Petrovich oppoq oqargan ko'yi o'rnidan turdi.

Bunaqasi ketmaydi, birodarlar. Kattaroq tangani solish kerak-da. Qanday yutib qo'yganimni bilmay qolibman...

Odamlar uning ustidan xoxolab kula boshlashdi. Petrovich esa kulmasdi. Esankiraganicha stolning yonida turar va cho'michdagi suvni tinmay ho'plardi.

Suv ichib, o'ziga keldi-da, kula boshladi.

Garchi tangani yutib yuborgan bo'lsam-da, lekin nima bo'lganda ham menga baxt kulib boqdi. Endi hayotda ham omadim chopishi tayin.

Lekin uning omadi chopmadi.

Kechga tomon uning mazasi qochdi va ikki kundan so'ng ming azobida qiynalib jon berdi.

Do'xtirlarning gapiga qaraganda, go'yoki Petrovich tanga tufayli jon berganmish, emishki, tanga ichakda turib qolganmish. Tanga, harholda uncha katta bo'lmasa-da, lekin yangi, chetlari g'adir-budir ekan, ichakdan sirg'alib o'ta olmabdi.

Petrovichni dafn etishdi. Shu ma'noda uning omadi chopdi.